ShaffofQurilish

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO‘JALIGI VAZIRLIGI

**"FAYZ LOYIHA EKSPERT"
MCHJ**

Holati: Ijobiy
Direktor: Saidov Anvar Ozodovich
Sana: 17-02-2025 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

230919 - SONLI

Obyekt nomi: 1-qavat savdo va maishiy xizmat ko'rsatish joylaridan iborat bo'lgan ko'p qavatli, ko'p xonadonli turar joy binosi qurish uchun loyihalashtirshga	
Buyurtmachi:	"YASHNAR NUROBOD" XUSUSIY KORXONA
Bosh loyihachi:	"ARCHITECTURAL LEADER PROJECT" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Aniqlanmagan
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	051677

1. Loyihalash uchun asos.

1.1 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 17 sentyabrdagi 579-sonli qarori.

1.2 Tasdiqlangan loyihalash topshirig’i;

1.3 Urganch tumani xokimining 13.04.2018 yildagi №1185q-sonli qarori.

1.4 O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi vazirligining 2024-05-21 yildagi 1733-1733217-187232-sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirig’i;

1.5 “HUDUDGAZTA`MINOT” AJ “Urganch tumani” Gaz tarmoqlariga ulanish uchun 29.07.2024 sanadagi №081432 sonli texnik sharti.

“XORAZM HUDUDIY ELEKTR TARMOQLARI” AJ “Urganch tumani” elektr tarmoqlariga ulanish uchun 09.07.2024 sanadagi №63-237-TSh/726 sonli texnik sharti.

1.6 "GEOPLUS" topo-geologik guruh tomonidan bajarilgan qurilish maydonchasining muhandislik-geologik sharoitlari to'g'risida topografik xulosasi;

1.7 Davlat ekologik ekspertizasining 22.07.2024 yildagi 01-02/13-912-sonli xulosasi;

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1 Loyiha tarkibiy bayoniga ko’ra «ishchi loyiha AR. KJ. PS. VK. EO. OV» ning elektron yo’nalishda taqdim qilingan loyiha hujjatlari.

2.2 Energiya Samaradorligi bo'limi.

2.3 Bosh reja.

2.4 Quyosh kollektorlari bo`limi.

2.5 Geologik qidiruv ishlari xulosasi.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1 Loyiha qishki havo harorati - 19,4ºC bo'lgan IV bino-iqlim zonasida qurilish uchun ishlab chiqilgan. Loyihani ishlab chiqishda quyidagi ma'lumotlar olindi:

- qor qoplamining me'yoriy og'irligi - 50 kg/m2;
- standart tezlik shamol bosimi - 38 kg/m2;
- Qurilish maydonining seysmikligi - 7 ball;
- Yong'inga chidamlilik darajasi - 2;
- Chidamlilik darajasi - 2;
- Tuproqning mavsumiy muzlashining me'yoriy chuqurligi – 0.8 m;
- Er osti suvlarining taxminiy maksimal darajasi – 96.6 m bo'lishi kutilmoqda. II darajali bino.

Tuproqlar to'ldiruvchi emas, seysmik xususiyatlarga ko'ra - III toifa.

Tuproqlar va er osti suvlari portlendsement betonlari, portlendsement shlaklari va sulfatga chidamli sementlarga nisbatan o'rtacha agressivdir. Bino QMQ 2.01.03-19 ga asosan to’g’ri loyihalangan. Qurilish konstruksiyalarini korroziyadan ximoyalashda QMQ 2.03.11-96 dan foydalanilgan.

3.2 Bosh reja.

Loyihalashtirilgan ob’ekt Xorazm viloyati Urganch tumani “Arboblar” MFY xududida joylashgan bo’lib, Shimol tomondan — turar joylar bilan chegaralangan; Janub tomondan — yo‘l bilan chegaralangan; Sharq tomondan — ko'p qavatli ko'p xonadonli turar joylar bilan chegaralangan; G‘arb tomondan —ko'p qavatli ko'p xonadonli turar joylar bilan chegaralangan;

Asosiy texnik iqtisodiy ko’rsatkichlari:

Umumiy maydon - 2500,0 м2

Qurilish osti maydoni - 767,4 м2

3.3 Xorazm viloyati Urganch tumani “Arboblar” MFY xududida Ko'p qavatli ko'p xonadonli turar joy binosi qurilishi loyihalangan bo’lib, to’g’ri to’rtburchak shaklda, binosining rejadagi OS o’lchamlari 17.9 x 44.6 m. 5 qavatdan iborat. Binoning balandligi poldan shiftgacha:

– 2.7 m. Qattiq konstruktiv dizayndagi podval qismi bilan

3.4 Texnik iqtisodiy ko'rsatkichlar

Qurilish maydoni - 767,4 м2

Qurilish hajmi - 13199,2 m3

3.5 Imkoniyati cheklangan shaxslar uchun chora tadbirlar.

Loyihalanayotgan bino Q.M.Q 2.07.02-22 ga asosan loyihalangan bo`lib :

- Binoni kiraverish qismiga nogironligi bo`lgan shaxslar hamda keksalar ehtoyojini inobatga olgan holda zinalar bilan 1 qatorda maxsus yo`lakcha kengligi 1.30 m bo`lgan (pondus) loyihalangan.
- Piyodalar yo`lkasining kengligi 2.0 m dan loyihalangan .
- Nogironligi bo`lgan shaxslar uchun binoda kirish qismlarida vizual va tovushli axborot jihozlari bilan jihozlangan. Vizual malumot piyodalar harakatlanadigan sathdan 0,9 - 1.7 m balandlikda joylashgan.

ShNQ 2.07.02-22 “Qurilish obyektlarini nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini inobatga olgan holda loyihalashtirish” talablariga javob beradi.

3.6. Yong’in xavfsizligi:

Loyihaning ushbu qismi buyurtmachining topshirig’i va arxitekturaqurilish rejalari asosida va O’zbekiston Respublikasida hozirda amalda bo’lgan qoida va talablarga asosan ishlab

chiqilgan. Yong’in xavfsizligi signalizatsiyasi tizimi sifatida “Altay” tipidagi qurilma qabul qiligan. Qurilmaning quvvati 220V o’zgaruvchan tok tarmog’dan ta’minlanadi. Yong’in signalizatsiyasi tarmoqlari КСПВ 2x0,5 turdagi kabellar orqali amalga oshiriladi. Yong’in signalizatsiyasi detektorlari sifatida – IP212-141 tutun detektori va IPR-514- 2 qo’lda ishlaydigan detektorlar qabul qilingan. Yong’in signalizatsiyasi detektorlari shiftga chiroqlar o’rnatilgandan so’ng devordan 4 m va bir biridan 8 m masofada o’rnatiladi. Qo’lda ishlaydigan detektorlar devorlarga pol sathidan 1.5 m balandlikda o’rnatiladi. Barcha yong’in signalizatsiya tizimi uchun zarur bo’lgan materiallar va o’rnatish ishlari loyihada batafsil ko’rsatib o’tilgan. Ob’ekt SHNQ 2.02.01-04 “Bino va inshootlarning yong’in xavfsizligi” talablariga javob beradi. Xududga kirish va chiqish yo’llari mavjud bo’lib, o’t o’chirish mashinalarini bino va inshootlarga borishi ta’minlangan. Birlamchi yong’in o’chirish uchun jixozlangan yong’inga qarshi qalqonlar va gidrant yordamida amalga oshiriladi. Favqulodda tutunga qarshi ventilyatsiya SHNQ 2.01.02 va SHNQ 2.04.05 larga muvofiq loyihalangan. Yong’inga qarshi qalqon – 1 ta Yong’inga qarshi suv havzasi – 1 ta

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1 Loyihaning ushbu bo'limi texnik shartlar va manfaatdor tashkilotlarning tavsiyalariga muvofiq ob'ektni muhandislik ta'minotini nazarda tutadi.

4.2 Elektr jixozlash va yoritish.

4.3 Quvvat tarqatuvchi sifatida shitlar xizmat qiladi.

4.4 Loyixaning keying bosqichida yoritkich sifatida energiya tejamkor LED yoritkichlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

4.5 Energiya samaradorligi choralari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 9 sentabrdagi PF220 sonli Farmoni O’zRBM ning 02.06.2011 yildagi 161- sonli talablariga muvofiq ob'ektning energiya samaradorligi bo'yicha zamonaviy yechimlarni taqdi m etish, energiya tejaydigan lampalar, zamonaviy issiqlik izolyatsion materiallar va ikki kamerali oynali PVX derazalar dan foydalanishni ta' minlash. Loyiha hujjatlarini ishlab chiqishda QMQ 2.01.04.2018 “Qurilishda issiqlik energiyasi” ga ko'ra issiqlik himoyasining 2- darajasi talablari asosida energiya samaradorliginita' minlashbo' yichachoratadbirlarni nazarda tutish va ob’ektlarni energiya resurslarini o'lchash moslamalari bilan ihozlanis hi bo'yicha talablar majburiydir.

Energiya samaradorligini ta’minlash uchun quyida energiya tejovchi texnologik yechimlar qabul qilingan:

- Tashqi devorlar qalinligi 100 mm, zichligi 100 kg/m3 bo’lgan bazalt tolali mineral paxta bilan izolyatsiya qilingan.
- Binoning energiya samaradorligi uchun iste'mol qilinadigan quvvatning 25-30 % quyosh panellari ta'minlanishi kerak.
- Tomda 0,5 кvt quyosh panellari (40 ta) Maksimal kuchi 20.0 kVt. 200 L (4 ta) suv isitgich o`rnatilgan.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1 Loyihaning arxitektura-qurilish qismi Xorazm viloyati bosh arxitektori, Urganch tumani Bosh arxitektori, Urganch tumani DSENM, Urganch tumani ichki ishlar boshqarmasi YOXB va buyurtmachi bilan kelishilgan.

5.2 Davlat ekologik ekspertizasining 22.07.2024 yildagi 01-02/13-912-sonli xulosasi;

5.3 Bino Xorazm viloyati qurilish bo’limi tomonidan tasdiqlangan Urganch tumani bosh rejasiga muvofiq joylashtirildi;

6. Ekspertiza natijalari.

6.1 Ishchi loyihada balandliklar ko’rsatib o’tilgan old ko’rinish
ko’rsatib o’tilsin.
6.1 Ishchi loyihada qirqim batafsil ko’rsatib o’tilsin.
6.2 Xonalar tarkibi aniq ko’rsatib o’tilsin.
6.3 Quyosh panellari soni ko’rsatib o’tilsin.
6.4 Ishchi loyihada tom qismini batafsil ko’rsatib o’tilsin.
Xato va kamchiliklar bartaraf qilindi.

7. Xulosalar.

Ekspertiza natijalarini xisobga olgan holda «Xorazm viloyati Urganch tumani “Arboblar” MFY xududida Ko'p qavatli ko'p xonadonli turar joy binosi qurilishi loyihasi» ishchi loyiha amaldagi zilzilabardoshlik, yong'in xavfsizligi, atrof-muhit muxofazasi, energiya samaradorligi standartlariga mos keladi va tasdiqlash uchun tavsiya etiladi.

7.1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 17 sentyabrdagi 579-sonli qarorining 3-bob 29-bandiga muvofiq exspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma’lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha echimlariga buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir.

7.2. Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003 yildagi 261-sonli, 31.01.2022 yildagi 46-sonli qarori va SHNK4.01.16-09 ga muvofiq tanlov savdolarini o’tkazish uchun obyektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi.

7.3. Buyurtmachi ekspertizaning izoxlari bo’yicha tuzatilgan loyiha-smeta xujjatlarini bosh pudratchi tashkilotga o’tkazilishini ta’minlaydi.

7.4. O’z.R. Vazirlar Mahkamasining 17.09.2021 yildagi 579-sonli qarorini 5-bob 36-bandiga asosan ushbu ekspertiza xulosasi berilgan sanadan boshlab 2 yil davomida amal qiladi.

AR. bo’yicha mutahasis: Saidov M.
AS. KJ bo’yicha mutahasis: Jumaniyazov S,
EO. VK. OV bo’yicha mutahasis: Rajabov U,
PS bo’yicha mutahasis: Razakov R.